
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga sharh

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ma'naviy etuk va jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shunga qaramasdan, yoshlar hayotidagi eng dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish, ularni kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha olib borilgan ishlar talab darajasida emasligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo'yildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar – kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilandi.

Yoshlar siyosati masalalari xizmati O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi faoliyatini samarali tashkil etish, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunida belgilangan vazifalarning to'laqonli ijrosini tashkil etish va nazorat qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining bu boradagi faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, ularga g'oyaviy-uslubiy yordam ko'rsatishni tashkil etish, sohaga oid qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'z lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zosi hisoblanadi.

Farmonda O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko'maklashish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni talablarini hayotga to'laqonli joriy etish va nazorat o'rnatish maqsadida Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tashkil etildi.

hokimlari raisligida Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo kengashlar faoliyat yuritadi.

Buyuk davlat arbobi Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtning ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnatib xizmat qilishini inobatga olib, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi beriladi.

Yoshlarning ilmiy va ijodiy faoliyat natijalarini, ilm-fan va adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini hamda yoshlar siyosatiga oid muhim yangiliklarni keng yoritish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining nashrlarini chop etishga ixtisoslashgan "Yoshlar nashriyoti uyi" tashkil etiladi. Qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish, ular orasida haqiqiy etakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida "Qizlarjon" jurnali ta'sis etiladi.

Farmonga ko'ra, yoshlarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "Men sevib o'qigan kitob" va "Eng yaxshi kitobxon" respublika tanlovlari, "Kitob bayrami" va "Bolalar kitoblari" an'anaviy respublika festivallari, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik hissini qaror toptirishga qaratilgan aksiyalar, yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar, adabiyotshunos olimlar bilan ijodiy uchrashuvlar va master-klasslar tizimli tashkil etilishi belgilandi.

Shu bilan birga, 2017-2018 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "katta etakchi" va "to'garak rahbari" shtat birliklarini tugatish hisobiga lavozim maoshi yuqori sinf o'qituvchisiga tenglashtirilgan "yoshlar etakchisi" shtat birligi joriy etildi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida "yoshlar etakchisi" vazifasi yuklatilgan xodimga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ma'lumotli o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama belgilanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etilishi Farmonda belgilab berilgan.

Yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o'qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etiladi.

Farmonda 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes korxonalarini tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi uchun hisoblangan summaning 8 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishi belgilandi.

Ta'lim muassasasini tamomlaganiga uch yil bo'lmagan, birinchi marta ishga qabul qilingan yoshlarga daromad solig'ini birinchi yil uchun 50 foiz, ikkinchi va uchinchi yillar uchun esa 25 foizga kamaytirish, shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida turli fanlar, jumladan, chet tillarni o'rgatish, kompyuter dasturlarini tuzish va tadbirkorlik asoslarini o'qitish maqsadida tashkil etiladigan sho'ba korxonalarini 2027 yil 1 avgustga qadar barcha soliqlardan ozod etish, bunda korxonalar ixtiyorida qoladigan summaning 20 foizini O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kengashlari raislari tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi va maqomi bo'yicha ularning birinchi o'rinbosarlariga tenglashtirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari – huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi tavsiyasi asosida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 3 yil va undan ko'p muddat davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang'ich to'lovi, shuningdek, tashkilotning faol a'zosi bo'lgan oliy ta'lim

muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalariga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo'lgan taqdirda ta'lim bo'yicha to'lov kontrakti miqdorining 35 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Muhim jihati shundaki, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni yanada qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2018-2021 yillarga mo'ljallangan Yoshlar uylarini barpo etish dasturi ishlab chiqiladi. Mazkur dasturda barcha yirik shaharlarda – ko'p qavatli, qishloq tumanlarida – 1-2 qavatli namunaviy loyihalar asosida arzon uylar yoshlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib qurilishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining viloyat, shahar va tuman kengashlari raislarini rag'batlantirish maqsadida ularga "Matiz" va "Damas" avtomashinalarini xarid qilish uchun 10 yil muddatgacha mo'ljallangan, boshlang'ich to'lovi 15 foizlik imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Respublikamizning tuman markazlari va shaharlarda Yoshlar tadbirkorlik klasterlari tashkil etiladi.

Foydalanilmayotgan davlat ob'ektlarini, shuningdek, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalaridagi ob'ektlarni O'zbekiston yoshlar ittifoqining a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga to'lovsiz ijaraga berish tartibi joriy etiladi.

"Yoshlar" teleradiokanali" AJ faoliyatini kuchaytirish maqsadida uning 50 foiz aksiyalari O'zbekiston yoshlar ittifoqiga beriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari har oyda kamida bir marta yoshlar bilan ochiq muloqotlarni o'tkazib borish amaliyoti joriy etiladi.

2017-07-10 10:53:01